Hamroyeva Sabina Ismoil qizi, Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA AGROBIZNES TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1115
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	
INFLYASIYA VA BUDJET XARAJATLARI: ASOSIY BOG'LIQLIKLAR.....	1118
Izbosarov Bobur Baxriddinovich, Umirov Sherzod Baxriddinovich	
KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1124
Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	1128
Уктамов Альберт Жасурович Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ КОМПЛЕКСНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ: СНИЖЕНИЕ РИСКОВ, УКРЕПЛЕНИЕ КАПИТАЛЬНОЙ БАЗЫ И ЛИБЕРАЛИЗАЦИЯ АКТИВОВ.....	1135
Эгамова Махфурат Эсановна	
ФАЗООБРАЗОВАНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАГНИЕВОГО ОКСИХЛОРИДНОГО ЦЕМЕНТА, СИНТЕЗИРОВАННОГО ИЗ КАУСТИЧЕСКОГО ДОЛОМИТА.....	1141
Абылова Амина, Сайпов Абат, Бекбосынова Рысгул, Абылов Женис	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV USULLARI	1150
Shohruzbek Ruziyev	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA SIRKULYAR IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	1156
Xalikulova Gulzada Tojimuratovna, Kuziyeva Nargiza Ramazanovna	
MARKAZIY OSIYODA SUN'IY INTELLEKTNING KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1162
Kodirova Samira Kamol qizi	



MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOIIY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI	1169
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li	
RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARINING EVOLYUTSIYASI VA HUDUDIIY USTUNLIK LARNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	1175
Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI	1181
Kazakova Zulayho, Saidazamova Nilufar, Isroilov Shohruh	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSPORT TIZIMI TRANSFORMATSIYASI ORQALI BARQAROR MAKROIQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ILMIY-USLUBIIY ASOSLARI.....	1186
Jalolova Madina Shopolat qizi	
ПОВЫШЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ В КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА	1192
Шермухамедов Акмал Комилжонович	
KICHIK BIZNESDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARASI.....	1198
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich, Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
KIYIM DIZAYNIDA ESTETIK VA FUNKSIONALLIK UYG'UNLIGI.....	1202
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
K-SURE JANUBIIY KOREYA EKSPORTINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA ASOSIIY DAVLAT MUASSASASI SIFATIDA.....	1205
Umarov Xasan Sunnatullaevich	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RAQAMLI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELII	1210
To'rayeva Nafisa Odiljonovna	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1215
Astanayev Kulmaxammat Sanayevich	
RESURSGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	1221
Jalolov Abbasxon Ravshanxon o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIIY MEXANIZMLARI.....	1228
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING AHAMIYATI	1233
Sabirov Mirza Qilichbayevich	
Zararli dasturiy ta'minotni aniqlash va tahlil qilishda neyron tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlari.....	1238
Nuratdinov Xushnid Begzadovich, Erejepov Kewlimjay Kaymatdinovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA INVESTITSIIYA FAOLIYATINING ZAMONAVIIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	1244
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT METODOLOGIYASINI SHAKLLANTIRUVCHI TAMOIYILLAR VA YONDASHUVLAR.....	1250
Saitmuratov Saitmuarat Masharip o'g'li	
ASINXRON MOTORLARNING NOSIMMETRIK REJIMLARINI NAZORAT QILISH VA BOSHQARISH TIZIMLARI UCHUN EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR METODIKASINI ISHLAB CHIQISH.....	1255
Tojimurodov Dilshodbek Dilmurodjon o'g'li	



SOLIQ ORGANLARI VA SOLIQ TO'LOVCHILAR O'RTASIDAGI NIZOLARNI SUDGACHA HAL ETISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1263
Solihova Xumora Xasan qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	1269
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARI MUVOFIQLIGI VA UNI BOSHQARISH	1274
Saidov Doniyor Abdullayevich	
AI-BASED AUTOMATED ASSESSMENT SYSTEMS AND THEIR ROLE IN EDUCATION QUALITY MONITORING: THE CASE OF UZBEKISTAN.....	1280
Majidova Yulduz, Janayev Bunyod, Choriyev Anvar, Mamatqulov Mavlon	
MAHALLIY BYUDJETLARDA SOLIQLARNI UNDIRISHNI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI	1286
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA XUSUSIYATLARI.....	1294
Murtazayev Olim, Norbekov Fazliddin Iskandar o'g'li	
SOLIQ NIZOLARINI MA'MURIY TARTIBDA KO'RIB CHIQISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1301
Solihova Xumora Xasan qizi	
KRIPTOAKTIVLAR VA MBRVNING MONETAR SIYOSAT TRANSMISSIYA MEXANIZMIGA TA'SIRI	1305
R.I. Rashidov, S.B.Eshmurodova	
"SMART TOURISM FAMILY ENTREPRENEURSHIP SYSTEM" MODELINING SINERGETIK SAMARADORLIGI VA TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI INVESTITSİYALAR BILAN TA'MINLASHDAGI IMKONIYATLARI.....	1310
Pardayeva Ozoda Mamayunusovna	
KORPORATIV KONFLIKTLARNI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	1318
Xolikova Saboxat Abdukarim qizi	
LONDON XALQARO MOLIYA MARKAZINING RIVOJLANISH OMILLARI VA RAQOBAT USTUNLIKLARI	1325
Alimardonov Elshod Dilshodovich	
XARID TURIZMI VA TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: O'ZBEKISTON VA QO'SHNI DAVLATLAR MISOLIDA.....	1332
Akmal Bakhromov	
AEROTROPOLIS KONSEPSIYASI ASOSIDA SAMARQAND XALQARO AEROPORTINI MINTAQAVIY TURISTIK HUB SIFATIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1338
Alisher Suyunov	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1345
Baxriddinov Sharofiddin	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ HISOBOTINI AVTOMATIK SHAKLLANTIRISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1352
Boymurotov Sodiq	
ESG-РЕЙТИНГОВЫЙ АНАЛИЗ ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ КОМПАНИЙ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ. 1356	
И. Р. Бердикулова	
МОДЕЛИРОВАНИЕ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ В ЦЕЛЯХ ОПТИМИЗАЦИИ ОПЕРАЦИОННЫХ РАСХОДОВ ДЛЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ.....	1360
Джуманов А.А.	
FERMER XO'JALIKLARIDA YER-SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1370
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОПТИМИЗАЦИИ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	1376
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	
TIJORAT BANKLARIDA OMONATLAR HAJMINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA ISTIQBOLLI PROGNOZLASH.....	1382
Raximov Shoxrux Furqatovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1388
Xushvaqtov Shuhrat Abduraufovich	
MOLIYAVIY QAROR QABUL QILISHDA ZAMONAVIY USULLAR VA TEXNOLOGIYALAR	1393
Begalov Sherzod Maxsutaliyevich	
O'ZBEKISTONDA MAJBURIY SUG'URTANING AHAMIYATI	1400
F. Sh. Hamrayeva	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH: DAVLAT VA NODAVLAT OTM LARNING QIYOSIY TAHLILI	1405
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK DOIRASIDAGI LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1411
Sh. Qurbonova	
HUDUDIIY AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTITSION EHTIYOJLARNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	1419
Maxamadiyev Turg'unbay Jumabayevich	
HUDUDIIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI INTEGRAL INDEKS ASOSIDA BAHOLASH VA DALILLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISH (BUXORO VILOYATI TUMANLARI MISOLIDA)....	1424
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
TOURISM'S MACROECONOMIC CONTRIBUTION AND POST-PANDEMIC RESILIENCE: GDP AND EMPLOYMENT DYNAMICS, 2015-2025, WITH PROJECTIONS TO 2030.....	1428
B. Sobirov	
MOLIYAVIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1435
Tagriyeva Farida Abdukarimovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA INSURTECH YECHIMLARINI JORIY ETISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1439
Ashirov Jalil Baxridinovich	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	1445
Toxtasinova Dilbar Djalaldinovna, Egamova M.	
SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TASVIRLAR VA VIDEO LARGA ISHLOV BERISHDA SUN'IY NEYRON TARMOQLARI ARXITEKTURASINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	1451
Jo'rayev Sherali Umarjonovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ: НАЦИОНАЛЬНЫЙ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1459
Хакимов Нодир Назарович	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA XALQAROLASHISH JARAYONINING KONSEPTUAL ASOSLARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	1465
Jurayev Abror Turobovich	



OLIY TA'LIM TIZIMIDA XALQAROLASHISH JARAYONINING KONSEPTUAL ASOSLARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Jurayev Abror Turobovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: a.jurayev@buxdu.uz

ORCID: 0000-0002-4108-3274

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida xalqarolashish jarayonining konseptual asoslari va zamonaviy tendensiyalari o'rganiladi. Muallif xalqarolashish tushunchasining evolyutsiyasini to'rt tarixiy bosqichda — diniy-madaniy, ilmiy-sanoat, mafkuraviy va globallashuv bosqichlarida — tahlil qiladi hamda o'nta yetakchi nazariy yondashuvni tizimlashtiradi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ta'riflari qiyosiy tahlil qilinib, ESG (atrof-muhit, ijtimoiy mas'ullik, korporativ boshqaruv) yondashuviga tayanuvchi yangi ta'rif taklif etiladi. Global va milliy statistik ko'rsatkichlar asosida jarayonning bugungi ko'lamini baholalanadi; O'zbekiston oliy ta'lim tizimida miqdoriy o'sish sifatli transformatsiyadan ortda qolayotgani asoslanadi. Muallif ESG yondashuvini resursga asoslangan, institutsional, manfaatdor tomonlar va inson kapitali nazariyalarini yagona metodologik platformada birlashtiruvchi vosita sifatida taqdim etadi. Olingan natijalar oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini xalqaro standartlar asosida modernizatsiyalash zaruratini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, xalqarolashish, ESG yondashuvi, barqaror rivojlanish, akademik mobillik, xalqaro reytinglar, institutsional transformatsiya, konseptual model.

Abstract: This article examines the conceptual foundations and contemporary tendencies of internationalization in higher education. The author traces the evolution of the concept through four historical stages — religious-cultural, scientific-industrial, ideological, and globalization — and systematizes ten leading theoretical approaches. Through a comparative analysis of definitions proposed by foreign and local scholars, a new definition grounded in the ESG (Environmental, Social, Governance) approach is proposed. Drawing on global and national statistical indicators, the study assesses the current scale of the process and argues that quantitative growth in Uzbekistan's higher education system lags behind qualitative transformation. The author presents the ESG approach as a tool that integrates the resource-based, institutional, stakeholder, and human capital theories into a single methodological platform. The findings point to the need to modernize the management of higher education institutions in line with international standards.

Keywords: higher education, internationalization, ESG approach, sustainable development, academic mobility, international rankings, institutional transformation, management, conceptual model.

Аннотация: В статье исследуются концептуальные основы и современные тенденции интернационализации системы высшего образования. Автор прослеживает эволюцию понятия через четыре исторических этапа — религиозно-культурный, научно-промышленный, идеологический и глобализационный — и систематизирует десять ведущих теоретических подходов. На основе сравнительного анализа определений зарубежных и отечественных учёных предлагается новое определение, опирающееся на подход ESG (экология, социальная ответственность, корпоративное управление). На основе глобальных и национальных статистических показателей оценивается современный масштаб процесса; обосновывается, что количественный рост в системе высшего образования Узбекистана отстаёт от качественной трансформации. Автор представляет подход ESG как инструмент, объединяющий ресурсную, институциональную, стейкхолдерскую теории и теорию человеческого капитала в единую методологическую платформу. Полученные результаты указывают на необходимость модернизации управления высшими учебными заведениями в соответствии с международными стандартами.

Ключевые слова: высшее образование, интернационализация, подход ESG, устойчивое развитие, академическая мобильность, международные рейтинги, институциональная трансформация, управление, концептуальная модель.

KIRISH

XXI asrning birinchi choragida universitet o'z vazifasini qayta ko'rib chiqmoqda. U endi faqat bilim beruvchi tashkilot emas. Global hamkorlik, ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanishning faol ishtirokchisiga aylangan zamonaviy oliy ta'lim muassasasi transmilliy institut sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu bois xalqarolashish masalasi bugungi ilmiy munozaralarning markazida turibdi.

Raqlamlar bu o'zgarishning ko'lamini yaqqol ko'rsatadi. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 20 yilda o'z vatanidan tashqarida tahsil olayotgan talabalar soni uch barobar oshdi. Xalqaro hamkorlikda tayyorlangan ilmiy nashrlar ulushi jami nashrlarning chorak qismiga yaqinlashdi. Bunday dinamika xalqarolashishni tasodifiy hodisa emas, balki oliy ta'lim tizimining strukturaviy xususiyatiga aylanganini tasdiqlaydi.

Ammo miqdoriy o'sish sifat yetukligini anglatmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda talabalar almashinuvi, filiallar ochilishi va shartnomalar soni ortgani holda, boshqaruvning chuqur o'zgarishi ko'pincha ortda qoladi. Miqdor bilan sifat orasidagi ana shu tafovut maqolaning asosiy muammosini belgilaydi. Maqolaning maqsadi oliy ta'limda xalqarolashishning konseptual asoslarini nazariy jihatdan umumlashtirish, uning tarixiy evolyutsiyasi hamda zamonaviy tendensiyalarini tizimlashtirish va ESG yondashuvining bu jarayondagi o'rnini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'limni xalqarolashtirish masalasi xalqaro adabiyotda keng o'rganilgan. J. Knight [1] xalqarolashishni "oliy ta'limning maqsadlari, vazifalari va faoliyatiga xalqaro, madaniyatlararo va global o'lchamlarni kiritish jarayoni" sifatida ta'riflaydi. Bu ta'rif jarayonning faollik xarakteriga urg'u beradi, biroq amalga oshirish mezonlarini aniq belgilamaydi. J. Hudzik [2] "to'liq xalqarolashish" konsepsiyasini ilgari surib, universitetning ta'lim, ilmiy tadqiqot, xizmat ko'rsatish va boshqaruv faoliyatini bir vaqtda qamrab olish zarurligini asoslaydi.

U. Teichler [3] xalqarolashish va globallashuvni farqlashni talab qiladi hamda birinchisini milliy tizimlar o'rtasidagi ongli strategik faoliyat deb izohlaydi. P. Scott [4] globallashuvni kuchliroq hodisa, xalqarolashishni esa unga ongli javob sifatida ko'radi. H. de Wit va hammualliflari [5] ta'rifga ta'lim sifati hamda ijtimoiy hissa tamoyillarini qo'shib, jarayonning "maqsadli" xususiyatini birinchi bo'lib ta'kidlaydilar. P. Altbach va J. Knight [9] esa faol va nafaol xalqarolashishni ajratib, faol yondashuv resurs bilan ta'minlangan ongli javob ekanini ko'rsatadi.

Mintaqaviy tadqiqotlar boshqa qirrani ochadi. A. Sagintayeva va Z. Jumakulov [6] Qozog'iston misolida xalqarolashishni davlat siyosati vositasi deb ko'rsatib, post-sovet makonida davlat nazorati bilan institutsional mustaqillik o'rtasidagi tafovutni birinchi marta tizimli tahlil qildilar. O. S. Uralov [7] O'zbekiston kontekstida jarayonning nazariy asoslanmaganini, asosan miqdoriy ko'rsatkichlarga qaratilganini aniqladi. D. Ubaydullayeva [8] esa mamlakat universitetlarida mustaqil xalqarolashish strategiyalarining yetarli darajada shakllanmaganini empirik jihatdan asoslab berdi.

Mavjud ta'riflar tahlili milliy sharoit uchun moslashtirilgan, sifatga yo'naltirilgan ta'rif yetishmasligini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqib, muallif quyidagi ta'rifni taklif qiladi: oliy ta'limni xalqarolashtirish — universitetning strategik boshqaruvi, ta'lim-tarbiya va ilmiy tadqiqot faoliyatiga hamda xizmat ko'rsatishga ESG yondashuvi asosida xalqaro, madaniyatlararo va global o'lchamlarni tizimli va maqsadli ravishda kiritish orqali muassasaning barcha qatlamlarida chuqur institutsional transformatsiyani ta'minlash jarayonidir. Yondashuvlarning to'liq qiyosiy tahlili 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Oliy ta'limni xalqarolashtirish tushunchasiga oid xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ta'riflari va ularning qiyosiy tahlili¹

Tadqiqotchi	Yil	Ta'rif	Asosiy urg'u
J. Knight	2004	Oliy ta'limning maqsadlari, vazifalari va faoliyatiga xalqaro, madaniyatlararo hamda global o'lchamlarni kiritish jarayoni.	Jarayon va faoliyat o'lchamlari
H. de Wit va boshq.	2015	Ta'lim sifati va ijtimoiy hissa qo'shish maqsadida barcha talabalar hamda xodimlar uchun oliy ta'limning maqsadlari, vazifalari va faoliyatiga xalqaro, madaniyatlararo va global o'lchamlarni maqsadli integratsiyalash jarayoni.	Maqsadli integratsiya va ijtimoiy qiymat
J. Hudzik	2011	Universitetning barcha faoliyat yo'nalishlarini (ta'lim, ilmiy tadqiqot, xizmat ko'rsatish va boshqaruv) qamrab oluvchi yaxlit transformatsiya. "To'liq xalqarolashish" rahbariyat tomonidan strategik ustuvorlik sifatida tan olinishini va resurs bilan ta'minlanishini talab qiladi.	Tizimli va to'liq qamrov
U. Teichler	2004	Xalqarolashish — milliy oliy ta'lim tizimlari o'rtasida chegaralarni kengaytiruvchi strategik faoliyat. U "globallashuv" (milliy tizimlardagi chegaralarning yo'qolishi) tushunchasidan farqlanishi zarur.	Tizimlar o'rtasidagi ongli aloqa

1 Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan.



P. Scott	1998	Milliy an'analar va madaniyatlar chegarasidan chiquvchi, ta'lim va bilim almashuvining kengayib borishi jarayoni. Globallashuv — milliy chegaralarni e'tiborsiz qoldiradigan kuchliroq hodisa bo'lib, xalqarolashish unga ongli javobdir.	Milliy chegaralar va global kengayish
P. Altbach & J. Knight	2007	Xalqarolashish — globallashuv kuchlariga strategik va ongli javob berish jarayonidir. Faol xalqarolashish maqsadli va resurs bilan ta'minlangan javob, nafaol xalqarolashish esa tashqi bosimga reaktiv javobdir.	Faol va nafaol xalqarolashish
A. Sagintayeva, Z. Jumakulov	2016	Qozog'iston oliy ta'limida xalqarolashish akademik mobillik, xalqaro hamkorlik va milliy iqtisodiy rivojlanishga yo'naltirilgan davlat siyosati vositasidir. U global standartlar bilan muvofiqlashtirish asosida amalga oshiriladigan ko'p o'lchamli jarayondir.	Siyosat va milliy-global muvofiqlashtirish
O.S. Uralov	2020	O'zbekiston oliy ta'limida xalqarolashish — davlat strategiyasi doirasida milliy universitetlarning global bilim makoniga integratsiyalanishi; xalqaro talabalar va hamkorlik dasturlari orqali muassasaviy salohiyatni kengaytirish jarayoni.	Davlat boshqaruvidagi milliy integratsiya
D. Ubaydullayeva	2024	O'zbekiston universitetlarida xalqarolashish ko'pincha yuqoridan pastga (top-down) boshqariladigan jarayon bo'lib, muassasalar mustaqil strategiyadan mahrum; chuqur xalqarolashish uchun muassasa tashabbusidagi maqsadli faoliyat zarur.	Institutsional mustaqillik zarurati
A.T. Jurayev (muallif)	2026	Oliy ta'limning xalqarolashishi — universitetning strategik boshqaruvi, ta'lim-tarbiya va ilmiy tadqiqot faoliyatiga hamda xizmat ko'rsatishga ESG yondashuvi asosida xalqaro, madaniyatlarga va global o'lchamlarni tizimli va maqsadli ravishda kiritish orqali muassasaning barcha qatlamlarida chuqur institutsional transformatsiyani ta'minlash jarayonidir.	ESG-asosli strategik transformatsion integratsiya

Jadvaldan ko'rinadiki, xorijiy olimlar asosan strategik, institutsional va global yondashuvlarni taklif qilgan bo'lsa, mahalliy tadqiqotchilar adaptiv va tizimli rivojlantirishga urg'u beradilar. Muallif ta'rifi ESG mezonlarini xalqarolashishning majburiy tarkibiy qismi sifatida kiritishi hamda chuqur institutsional transformatsiyani markazga qo'yishi bilan farqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda oliy ta'limni xalqarolashtirish jarayonining konseptual asoslari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning nazariy asosini xalqarolashish, oliy ta'lim menejmenti va barqaror rivojlanish yo'nalishlarida olib borilgan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- mazmuniy tahlil (content analysis) usuli — xorijiy va mahalliy olimlarning ta'riflarini tasniflashda;
- tarixiy-genetik usul — xalqarolashish jarayonining davriyligini va bosqichlarini aniqlashda;
- qiyosiy tahlil usuli — yondashuvlar o'rtasidagi umumiylik va farqlarni belgilashda;
- statistik-tavsifiy tahlil usuli — global va milliy ko'rsatkichlarni o'rganishda;
- induksiya va sintez usullari — muallif ta'rifini shakllantirish va nazariy asoslarni integratsiyalashda qo'llanildi.

Manbalar tanlashda 1998–2026-yillarda chop etilgan xalqaro va milliy tadqiqotlarga hamda rasmiy statistik hisobotlarga (YUNESKO, QS, Web of Science) ustuvorlik berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil xalqarolashish tushunchasi to'rt tarixiy bosqichni bosib o'tganini ko'rsatdi. Dastlabki bosqich (IX–XVII asrlar) diniy-madaniy omillar bilan bog'liq: bu davrda bilim "izlab topiladigan" ne'mat sanalgan. Movarounnahr butun Islom olamidani talaba oqib keladigan markazga aylangan; uch bosqichli ta'lim tizimi — maktab, madrasa va madrasai oliya — aynan shu hududda shakllangan. Imom al-Buxoriy va Iso at-Termiziy hadis to'plash uchun Hijoz, Iroq va Misrga safar qilishgan, Ibn Sino, al-Farobiy va Beruniy esa akademik mobillikning yorqin namunasini ko'rsatganlar.

Shu o'rinda muhim tuzatish zarur. Ko'p manbalar xalqarolashishni Yevropa Uyg'onish davridan boshlaydi. Vaholanki, Sharq tajribasi bundan ancha ilgari boy an'ana yaratgan. Xitoyda Sun sulolasi davrida "Keju" tizimi

minglab talabani poytaxtga jalb etgan, 970-yilda ochilgan al-Azhar esa Qohirani global markazga aylantirgan. Yevropada Bolonya (1088), Parij (1150) va Oksford (1167) universitetlari paydo bo'lgach, sayyor talabalar eng yaxshi ustozni qidirib shahardan shaharga ko'chgan. Demak, xalqarolashish tarixini faqat G'arb bilan bog'lash bir tomonlama xulosa bo'ladi.

Sanoat bosqichi (XVIII asr – 1945-yil) ilmiy bilim almashinuvi va milliy ta'lim tizimlarining shakllanishi bilan tavsiflanadi. 1810-yilda tashkil etilgan Berlin Gumboldt universiteti tadqiqot va ta'limni birlashtiruvchi model yaratdi. Ideologik bosqich (1945–1980-yillar) sovuq urush fonida ta'lim diplomatiyasini oldinga chiqardi: 1946-yilda Fulbrayt dasturi, 1960-yilda Xalqlar do'stligi universiteti tashkil etildi. Faqat 1950-yildan 1980-yilgacha dunyodagi oliy ta'lim muassasalari soni 6 700 tadan 25 000 tadan oshib ketdi. Global bosqich (1980-yildan hozirgacha) raqamlashtirish, raqobat va ko'p qirrali hamkorlik bilan belgilanadi [10]. 1999-yildagi Bolonya jarayoni Yevropa oliy ta'lim makonini yaratdi; COVID-19 pandemiyasi esa "virtual xalqarolashish" paradigmasini yuzaga keltirdi.

Tahlil beshta yetakchi zamonaviy tendensiyaning aniqqladi: raqamli transformatsiya va virtual xalqarolashish; barqaror rivojlanish va ESG integratsiyasi; mintaqaviy hamkorlik va yangi geografik markazlar; sifat ta'minoti va xalqaro akkreditatsiya; iqtidorlilar uchun raqobat va intellektual migratsiya. Bu tendensiyalar bir-biridan ajralgan holda mavjud emas — ular kesishadi. Diqqatga sazovori shundaki, ESG integratsiyasi qolgan to'rttasi bilan tutashadi: raqamli transformatsiya ekologik samaradorlikni oshiradi, mintaqaviy hamkorlik ijtimoiy javobgarlikni kengaytiradi, sifat ta'minoti boshqaruv shaffofligini mustahkamlaydi, talant raqobati esa inson kapitaliga investitsiya samaradorligini belgilaydi.

Statistik ko'rsatkichlar jarayonning ko'lamini aniqlashtiradi. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda 6,9 milliondan ortiq talaba o'z vatanidan tashqarida tahsil olgan — bu 2000-yildagi 2,1 million bilan solishtirganda uch barobardan ziyod o'sish [11]. QS bashoratiga ko'ra, 2025-yilda xalqaro talabalar soni 7,6 million atrofida bo'lib, 2030-yilga borib 8,5 millionga yetishi kutilmoqda [12]. Web of Science ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda chop etilgan ilmiy maqolalarning 23 foizdan ortig'i xalqaro hamkorlikda yozilgan [13]. O'zbekiston ko'rsatkichlari ham jadal o'sishni ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xalqarolashishning asosiy ko'rsatkichlari² (2018–2024)

Ko'rsatkich	2018	2020	2022	2024
OTMlar soni	72	117	189	213
Xalqaro OTM filiallari	7	14	24	32
Xorijiy talabalar soni	1 500	3 200	5 800	8 500
Reytinglarda ishtirok (OTM)	3	8	15	22
Qo'shma ta'lim dasturlari	12	38	67	95

Biroq bu raqamlar ortida sifat ko'rsatkichlarini yanada mustahkamlash uchun muhim imkoniyatlar mavjud. Xorijiy talabalar soni global miqyosda izchil o'sib bormoqda, universitetlarning reytinglardagi ishtiroki kengaymoqda, sifat ko'rsatkichlari esa miqdoriy o'sishni yanada samarali qo'llab-quvvatlash bosqichiga kirib bormoqda. Miqdoriy o'sish sifat jihatidan yanada barqaror natijalarni ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda — natijalarning eng muhim xulosasi shu.

Xalqarolashishning nazariy poydevorini yagona nazariya qamrab ololmaydi. Resursga asoslangan nazariya universitetning noyob resurslarini raqobat ustunligiga aylantirish mexanizmini tushuntiradi [15]. Institutsional nazariya OTMlarning xalqaro standartlar va reyting talabalariga moslashishini izohlaydi [16]. Manfaatdor tomonlar nazariyasi keng doiradagi manfaatlarni hisobga olishni asoslaydi [17], inson kapitali nazariyasi esa ta'limga investitsiyaning iqtisodiy qaytimini ko'rsatadi [18]. Har biri jarayonning bir qirrasini yoritadi, ammo yaxlit manzarani bermaydi. Aynan shu yerda ESG yondashuvining metodologik kuchi namoyon bo'ladi: u to'rtala nazariyani bitta o'lchanadigan platformada birlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil bir qancha xulosaga olib keladi. Xalqarolashish tushunchasi to'rt tarixiy bosqichni bosib o'tgan murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning har bir bosqichi o'ziga xos harakatlantiruvchi kuchga ega. O'nta yetakchi nazariy yondashuvning qiyosiy tahlili milliy sharoit uchun moslashtirilgan, sifatga yo'naltirilgan ta'rif yetishmasligini ko'rsatdi; shu bo'shliqni to'ldirish uchun ESG asosli yangi ta'rif taklif qilindi.

Zamonaviy beshta tendensiya orasida ESG integratsiyasi markaziy o'rin egallaydi, chunki u qolgan yo'nalishlarni o'zaro bog'laydi. Statistik tahlil O'zbekiston oliy ta'lim tizimida miqdoriy o'sish bilan bir qatorda

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan



sifatli transformatsiyani yanada jadallashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini tasdiqladi. Shu sababli OTM boshqaruvini ESG yondashuvi asosida modernizatsiyalash strategik ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlar ESG va xalqarolashish o'rtasidagi funksional bog'liqlikni miqdoriy o'lchovchi model hamda milliy sharoitga moslashtirilgan ko'p mezonli baholash tizimini ishlab chiqishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Knight J. Internationalization Remodeled: Definition, Approaches, and Rationales // Journal of Studies in International Education. 2004. Vol. 8, No. 1. P. 5–31. doi: 10.1177/1028315303260832.
2. Hudzik J.K. Comprehensive Internationalization: From Concept to Action. Washington: NAFSA, 2011. 68 p.
3. Teichler U. The changing debate on internationalisation of higher education // Higher Education. 2004. Vol. 48. P. 5–26. doi: 10.1023/B:0000033771.69078.41.
4. Scott P. Globalisation and Higher Education: Challenges for the 21st Century // Journal of Studies in International Education. 2000. Vol. 4, No. 1. P. 3–10. doi: 10.1177/102831530000400102.
5. de Wit H., Hunter F., Howard L., Egron-Polak E. Internationalisation of Higher Education. Brussels: European Parliament, 2015. 322 p.
6. Sagintayeva A., Jumakulov Z. Internationalization of higher education in Kazakhstan // International Higher Education. 2016. No. 84. P. 20–22. doi: 10.6017/ihe.2016.84.9114.
7. Uralov O.S. Internationalization of higher education in Uzbekistan // Social Sciences & Humanities Open. 2020. Vol. 2, No. 1. P. 100–116. doi: 10.1016/j.ssaho.2020.100059.
8. Ubaydullayeva D. O'zbekiston universitetlarida xalqarolashish strategiyalari tahlili // Iqtisodiyot va ta'lim. 2024. № 3. B. 45–58.
9. Altbach P.G., Knight J. The Internationalization of Higher Education: Motivations and Realities // Journal of Studies in International Education. 2007. Vol. 11, No. 3–4. P. 290–305. doi: 10.1177/1028315307303542.
10. Marginson S., van der Wende M. Globalisation and Higher Education. OECD Education Working Papers No. 8. Paris: OECD Publishing, 2007. 85 p. doi: 10.1787/173831738240.
11. UNESCO Institute for Statistics. Global Flow of Tertiary-Level Students. Montreal: UIS, 2023. URL: <http://uis.unesco.org/en/uis-student-flow>.
12. QS Quacquarelli Symonds. International Student Survey 2025. London: QS, 2025. 42 p. URL: <https://www.qs.com>.
13. Clarivate Analytics. Web of Science: Global Research Report — International Collaboration. Philadelphia: Clarivate, 2023. 28 p.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4545884>
15. Barney J.B. Resource-based theories of competitive advantage: A ten-year retrospective on the resource-based view // Journal of Management. 2001. Vol. 27, No. 6. P. 643–650. doi: 10.1177/014920630102700602.
16. Powell W.W., DiMaggio P.J. The Iron Cage Redux: Looking Back and Forward // Organization Theory. 2023. Vol. 4, No. 4. doi: 10.1177/26317877231221550.
17. Freeman R.E. Strategic Management: A Stakeholder Approach. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. 276 p. doi: 10.1017/CBO9781139192675.
18. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 3rd ed. Chicago: University of Chicago Press, 2009. 412 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100